

MASHRABNING “KIMYO” ASARIDAGI SO’ZLARNING TARIXIYLIK XUSUSIYATLARI

Akbarova Umida Muxtor qizi
NamDU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mashrabning “Kimyo” asarining tarixiylik xususiyatlari, asarda qo’llangan so’zlarning arxaizm va istorizm jihatdan farqli va o’xshash tomonlari haqida ma’lumot berildi, Qoidalar misollar keltirish orqali izhlab o’tildi.

Kalit so’zlar: leksik sath, eskirgan qatlam, yangi so’zlar, zamonaviy leksika, eskirgan leksika, yangi leksika, arxaizmlar, istorizmlar, amin, pristav, shayx, shoh, podshoh, avliyo so’zlari.

Jamiyat rivojlanib borar ekan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy hayotdagi ba’zi tushunchalar tamomila eskirib, amaliyotdan chiqib ketadi. Badiiy asarda muayyan davr voqealari tasvirlanar ekan, ana shu davrga oid bo’lgan eski tushunchalarga murojaat qilmaslikning iloji yo’q. Til dinamik xususiyat kasb etib, to’xtovsiz harakatda bo’ladi, u tinimsiz rivojlanadi, yangilanadi va ichki va tashqi manbalar orqali boyib boradi. Umuman, aytganda, uning tarkibiga kiruvchi leksik birliklar doimo o’zgarishda bo’ladi. Davr taraqqiyoti, ijtimoiy hayotdagi o’zgarishlar tilning barcha sohalarida u yoki bu darajada o’zgarishlar bo’lishiga olib keladi. Eskirgan qatlamga oid leksik birliklar haqida so’z yuritar ekanmiz, ushbu qatlamning tarkibiy qismlari bo’lmish ikkita katta guruh arxaizmlar va istorizmlarning o’ziga xos xususiyatlari, ularning bir-biridan farqi haqida to’xtalib o’tish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotlarda ushbu ikki guruhga mansub leksik birliklarning bir-biridan farqlarini ko’rsatib beruvchi bir qancha xususiyatlar, tavsifiy ta’riflardan foydalaniladi. Jumladan, arxaizmlar deb hozirda mavjud bo’lgan tushunchalarni atab keluvchi eski shakldagi so’zlarga aytilsa, istorizmlar bu o’tmishda mavjud bo’lgan, hozirda mavjud bo’lmagan, boshqacha qilib aytganda, ham denotat, ham konnotat eskirgan birliklarni ifodalab keladi. Tilning hozirgi davri uchun eskilik bo’yog’iga ega bo’lgan til birligi arxaizm deb yuritiladi. Arxaizm o’zi nomlayotgan voqelikni anglatuvchi leksik bilan yonma-yon yashaydi. Arxaizmlar badiiy matnda tasvirlanayotgan davr voqeligini real tasvirlash, asarning tarixiylik ruhini ta’minlash maqsadida qo’llaniladi. Masalan, o’rdu-qo’shin, handasa-geometriya, tilmoch-tarjimon, mirza-kotib, sadr-rahis, **lak-yuz ming** kabi so’zlar ishlatilganda davr ruhi ta’kidlangan bo’ladi.

Yigirma ikki **lak** g’avsi mukammal,

Hama mandin topibdur ruhi manzal.

Yig’ildi sakson uch **lak** kas bayakbor,

U xalqdin topmadi bir mardi dindor.
Bu to'qson *lak murid*ga ruxsat oldim,
Egamdan chunki ozodi xat oldim.

Ayrim arxaik so'zlar zamonaviy ma'nodoshiga qaraganda ma'noni kuchliroq ifodalash xususiyatiga ega. Arxaik so'zlar muayyan davrning yozma uslubini ifodalashda yoki qahramonning nutqiy xarakteristikasini berishda ham uslubiy vosita sifatida ishlatiladi.

Hozirgi kunda uchrmaydigan, faqat tarixiy narsa yoki voqea-hodisalarning nomini bildiruvchi so'zlar istorizm (tarixiy so'zlar) deyiladi. Istorizmning arxaizmdan farqi shundaki, bugungi kunda o'sha tarixiy voqelikning o'zi ham uni anglatuvchi leksik birlik ham bo'lmaydi, demak istozim o'zi ifodalayotgan hodisaning yagona nomidir. Masalan: amin, pristav, mingboshi, noyib, ellikboshi, ponsad kabilar badiiy matnda ishlatilganda kitobxon ijtimoy boshqaruv tizimi bilan bog'liq tarixiy voqelikni ko'z oldiga keltiradi. Tarixiy so'zlar ham badiiy matnda o'tmish voqeligini real tasvirlash maqsadida ishlatiladi. Hozirgi adabiy tildagi eskirgan leksemalar eski leksemalar, yangi leksemalarning jami yangi leksemalar, na eskirgan, na yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'z zamonaviy leksemalar deb yuritiladi. Demak, o'zbek tili leksikasini tarixiylik nuqtayi nazaridan uchta asosiy qatlamga bo'lib o'rganish mumkin: 1) zamonaviy leksika; 2) eskirgan leksika; 3) yangi leksika.

Zamonaviy leksemalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasining asosini zamonaviy leksika tashkil etadi. Bu leksika umum iste'mol leksemalar, qo'lanilishi chegaralanmagan leksemalar, faol leksemalar kabi atamalar bilan ham yuritiladi.

Eskirgan leksemalar. Eski qatlamga oid leksemalar o'ziga xos xususiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1) tarixiy leksemalar; 2) arxaik leksemalar.

Tarixiy leksemalar hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanuvchi o'tmishga oid, iste'moldan chiqib ketgan narsa-hodisani bildiradi:

1) ijtimoiy-siyosiy nom: podsho, xon, shoh, qul, quloq, batrak, qarol, chorikor, avtod (avliyo), anbiyo;

Bu so'zni eshitib ul shayx *avtod*,
Boshiga xoklarni qildi barbod.
Kishi zindonga hech beg'am yurarmu?
Iymonlik *qul* chu bemotam yurarmu?

2) mansab, amal, unvon nomi: qozi, amin, bek, amir, arbob, udaychi, g'unchachi, shotir, zakotchi, so'fiy, pir, shinovar, orif;

O'shandog' bahriga bo'lsang *shinovar*,
Tegar dastingga doim toza gavhar.
Dedi bir *so'fiyga*, ey oliy himmat,
Ketar vaqtingda qilmangmi vasiyat?
Alam yo'l topti dildan ketti shodi,

Piriga arz qildi bomdodi.

3) buyum nomi: qalqon, dubulg ‘a, sovut, charx, duk, halaj, kajava, foytun, dilijon, kashkul, shamshir, xanjar

Hamaga bor chun *shamshiru xanjar*,

Shamshir (f) – qilich, tig’.

Xanjar (ar. xanjar) – ikki tomoni tig’li qurol.

Qani tig’ urgudek ul sheri Haydar.

Diling bo’lmaydu ilmni diniga ser,

Ki bordur ilm dononlarga *shamshir*.

4) o’lchov, pul birligi nomi: botmon, dirham, miri, paqir, qadoq, tanob, arshin, paysa;

O’n olti paysaga sotgum bu hajni,

Diling’a on qadar tuttum xarajni.

Dedi xalq: Egnida isyon balosi,

O’n olti paysa bo’lsa haj bahosi.

5) kiyim-kechak nomi: kuloh, choriq paranji, chachvon, qalami, hirqa;

6) hujjat nomi: vasiqa, sanad, taraka, vaqfnoma;

7) maorif atamasi: mudarris, xalfa, haftiyak, murid

Bu so’zni bildilar uch yuz *murid* zor,

Murid (ar. izdosh, ergashuvchi, shogird; sufiylar shogirdi) – pir yoki eshon (murshid)ga qo’l berib, sufiylik yo’liga kirgan shaxs.

Chunon qolib tahi qildi bayakbor.

Ajalni tig’I chun bag’rini tildi,

Nechuk ul pir, *murid* holini bildi.

Tarixiy leksemalar bildiradigan narsa-hodisa iste’moldan chiqib, o’tmish voqeligiga aylanganligi sababli, uning ko’pchiligi hozirgi davr kishisi uchun notanish bo’lishi mumkin. Tarixiy leksemalar hozirgi o’zbek adabiy tilida ham zarurat taqozasiga ko’ra qo’llaniladi. Xususan, tarixga oid ilmiy asarlar va darsliklarda, o’tmish voqealarini aks ettiruvchi badiiy asarlarda bunday leksemalar cheklanmagan darajada ishlatilishi mumkin. Ayrim polisemantik leksemalarning ba’zi ma’nolari tarixiylashib, boshqa ma’nosi umumiste’molda saqlanib qolishi mumkin. Arxaik leksemalar – o’z o’rnini boshqasiga bo’shatib bergan leksemalardir. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida ayrim narsa-hodisa boshqa leksema bilan atalib, avvalgisi iste’moldan chiqib ketadi: ulus (xalq), afandi (o’qituvchi), lang (cho’loq), tilmoch (tarjimon). Arxaik leksemalar o’zlarining neytral leksika tarkibidagi «o’rinbosar»larining «tarixiylik bo’yog’i» ifoda semasi bilan farqlanuvchi sinonimlaridir. Ular atash va vazifa semalari mushtarak birliklar hisoblanadi. Tilda bo’ladigan o’zgarishlar uzoq davom etadigan tadrijiy jarayondir. Tilda bo’ladigan o’zgarishlar uzoq davom etadigan tadrijiy jarayondir. Shu boisdan yangi leksemalar

tilga birdan kirib kelmaganligi kabi leksemalarning tarixiylashuvi va arxaiklashuvi asta-sekinlik bilan yuz beradi. Shu boisdan tarixiylashish va arxaiklashish hodisasini ham darajalash mumkin. Tarixiylashish yoki arxaiklashishning quyi darajasidagi leksemalar adabiy tilning bugungi bosqichida kam bo'lsa ham iste'molda bo'lsa, yuqori darajadagi eskirish natijasida leksema butkul iste'moldan chiqib ketadi.

Xulosa. Badiiy asar tilidagi eskirgan so'zlarni tahlil qilishda asar yozilgan davrni e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Chunki, "so'zlar yozuvchi yashagan, ijod etgan davridayoq eskirgan bo'lishi mumkin bo'lganidek, asar yozilgan davrda faol iste'molda bo'lib, keyinchalik iste'moldan tushgan" bo'lishi mumkin. Mustaqillikdan so'ng tilmizga yangi so'zlarning kirib kelishi qanchalik tezlashgan bo'lsa, ko'pgina so'zlarning tilmizning leksik qatlamidan chiqib ketishi ham shunchalik tezlashdi. Shu bilan bir qatorda tilmizga flesh, multimedia, drayver, marketing, internet kabi neologizmlar ham kirib keldi. Eskirgan so'zlar sirasidagi rayon, oblast, gimn so'zlari iste'moldan chiqib, o'rnini yangi so'zlar yoki ma'nodosh qatoridagi boshqa bir so'z egallagan bo'lsa, sovxoz, kolxoz so'zlari tarixiy so'zlar qatoriga o'tdi. Bu kabi sho'rolar boshqaruvi tizimini ifodalovchi eskirgan so'zlar tilmizda talaygina topiladi. Tilmizda mavjud bo'lgan vazir, posbon, hokim kabi ko'pgina so'zlarning vazifa doirasi va mazmuniy mundariyasi kengaydi. Shakllangan bozor iqtisodiyoti sohasidagi yangi tushunchalar fan va texnika sohasidagi yangi so'zlar tilmiz boyligini oshirishda muhim factor sifatida qaraladi. Texnika sohasining kompyuter, internet va ular bilan bog'liq bo'lgan ma'lum bir soha (terminologik) so'zlari sifatida emas, kengaygan holda umumiste'mol so'zlari sifatida ishlatilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xolbekova M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Guliston, 2010
2. Qurbonova M, Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi – T.: Universitet, 2014
3. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Boborahim Mashrab "Kimyo", - Namangan nashriyoti.
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
5. Begmatov. E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – T.: Fan, 1985
6. Jamolxonov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'qituvchi, 2005.